

O‘ZBEKISTONDA AHOLINI ISH BILAN TA’MINLASH VA ISHSIZLIK KO‘RSATKICHI TAHLILI

Begnazarova Shoiraxon Baxtiyor qizi

Talaba, Toshkent kimyo-texnologiya instituti,

E-mail: begnazarovashoira@gmail.com

ANNOTATSIYA

Aholi bandligi va daromadlarini oshirishga har tomonlama ko‘maklashish, ishsizlar, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar, mehnat bozoriga ilk bor kirib kelayotgan bitiruvchilar bandligini ta‘minlash bo‘yicha yangi ta‘sirchan mexanizmlarni joriy etish, ehtiyojmand aholini mehnat faoliyatiga jalb qilishda qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, yangi ish o‘rinlarini tashkil etgan tadbirkorlik sub‘ektlari faoliyatini yanada rag‘batlantirish maqsadida mamlakatimizda islohotlar va chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Kalit so‘zlar: bandlik, ishsizlik, daromad, tadbirkorlik, mehnat, ish haqi, mehnat bozori, talab, taklif.

ANALYSIS OF THE INDICATOR OF EMPLOYMENT AND UNEMPLOYMENT OF THE POPULATION IN UZBEKISTAN

ABSTRACT

All-round assistance to increase the employment and income of the population, introduction of new effective mechanisms to ensure the employment of the unemployed, especially young people and women, graduates who are entering the labor market for the first time, it is convenient to attract the needy population to work reforms and measures are being implemented in our country in order to create conditions and further stimulate the activities of business entities that have created new jobs.

Key words: employment, unemployment, income, entrepreneurship, labor, wages, labor market, demand, supply.

Bugungi kunda aholining ish bilan bandligini ta'minlash muammosi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim makroiqtisodiy xususiyatlaridan biri bo'lib iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida “Aholi bandligini oshirish maqsadida aholining real pul daromadlari va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'minlangan oilalar sonini va daromadlar bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish” asosiy vazifa sifatida belgilangan. Mehnat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi aholining munosib mehnat va munosib ish haqini shakllantirish, inson kapitalini rivojlantirish, uzluksiz kasbiy malaka va mehnat unumdorligini oshirish hamda tadbirkorlik ruhini yaratish hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida ma'muriy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni ijobiy amalga oshirish natijasida, iqtisodiyotning boshqa soha xodimlarining ham ish haqilarining oshishiga, ularning ham ichki, ham tashqi mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishlarini belgilaydi.

Bandlik - mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi, fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan va qonunlarga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyatdir. O'zbekistonda aholi sonining yuqori sur'atlarda o'sishi mehnat bozoriga ham katta bosim o'tkazib, ish bilan bandlik masalasini yanada keskin qilib qo'yimoqda. Yurtimizda 2021 yil 1 avgust holatiga doimiy aholi soni 35 mln. kishini tashkil qilib, tahlillarga ko'ra, 2030 yilda mamlakat aholisi 41 million kishidan oshadi. 2020 yilda mamlakatimizda 841 ming kishi tug'ilgan (24,6 promille) bo'lib, har yili mehnat bozoriga 500 mingdan ko'proq yoshlar kirib kelishi aholining ish bilan bandlik masalasini muhim ustuvor masala qilib qo'yimoqda.

Mamlakatimizda jami ish o‘rinlarining 90 foizi xususiy sektorda yaratilishini hisobga olsak, mamlakatda qulay biznes muhitini shakllantirish, davlat korxonalarini xususiylashtirishni jadallashtirish, xususiy mulk himoyasini ta’minlash, byurokratiya va korrupsiya illatlarini barataraf etish va faqat tadbirkorlikni rivojlantirish orqali iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkinligini xalqimiz ongiga singdirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Norasmiy bandlikning yuqori darajasi tabiiyki iqtisodiyotning qishloq xo‘jaligiga to‘g‘ri kelib, bu sohada band bo‘lganlarni rasmiylashtirish va ortiqcha ishchi kuchini esa boshqa sohalarga o‘tkazish bo‘yicha keng ishlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

2021-yilda mehnat bozori, professional standartlar, tarmoq malakalar doiralari va malaka talablarining ishlab chiqilishi hamda yangilab borilishi, malaka va bilimlarni baholash milliy tizimining xalqaro miqyosda tan olinishini ta’minlash maqsadida Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq va hududiy kengashlar tashkil etildi.

Aholini kasb-hunarga o‘qitish va qayta tayyorlashning uch bosqichli tizimini shakllantirish bo‘yicha:

- 1) band bo‘lmagan aholiga xizmat ko‘rsatuvchi hududiy «Ishga marhamat» monomarkazlari;
- 2) mamlakatning barcha hududlarida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tasarrufida tuman va shahar kasb-hunarga o‘qitish markazlari;
- 3) mahalla aholisini kasb-hunarga o‘qitish maskanlari tashkil etildi.

Raqamli iqtisodiyotning mehnat sohasiga keng joriy etilishi natijasida xohlagan odam hech qanday ortiqcha sarf-xarajat va vaqtni tejagan holda <http://ish.mehnat.uz/> sayti orqali viloyat, tuman (shahar) kesimida o‘z soha yo‘nalishi, kasb, ta’lim darajasi bo‘yicha hamda istalgan maosh hajmi doirasida vakant ish joylari haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishi va ishga joylashish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

O‘zbekistonda 2022 yil yanvar-iyun oylarida ishsizlik darajasi 8,8 foizni tashkil etib, o‘tgan yil shu davriga nisbatan 0,9 foizga kamaydi. Bandlik va mehnat

munosabatlari vazirligi xabariga ko‘ra, 2022 yil 1 iyun holatida mehnat resurslari soni 19,4 mln kishini tashkil etib, 2021 yil shu davriga nisbatan 0,8 foizga yoki 153,7 ming kishiga oshgan. Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo‘lganlar soni 13,7 mln kishini tashkil etib, o‘tgan yil mos davriga nisbatan 1,9 foizga yoki 261,3 ming kishiga oshgan. 1 iyun holatida rasmiy sektorda band aholi soni 6 mln kishini tashkil qilib, 2021 yil shu davriga nisbatan yuridik shaxslarda band bo‘lganlar soni 4,1 foizga yoki 240,6 ming kishiga oshgani kuzatilgan. Norasmiy sektorda band bo‘lganlar soni 5,6 mln kishini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 8,2 foiz yoki 507,5 ming kishiga kamaygan. Xorijiy davlatlarga ishlash uchun ketganlar 2 mln kishini tashkil etib, o‘tgan yil mos davriga nisbatan 528,2 ming kishiga oshishi norasmiy bandlarni kamayishiga sabab bo‘lgan.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, ishga muhtoj bo‘lganlar umumiy soni 1,3 mln kishini, ishsizlik darajasi iqtisodiy faol aholi orasida 8,8 foizni tashkil etdi. 16-30 yoshgacha bo‘lganlar orasida ishsizlik darajasi 14,5 foiz, ayollar orasida ishsizlik darajasi esa 12,8 foiz bo‘ldi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mehnat bozorida amalga oshirilayotgan faol bandlik siyosati – bu nafaqat aholining qonuniy, munosib va barqaror bandliga (daromadga ega bo‘lish) ko‘maklashishga shart-sharoitlar yaratish, inson kapitalini rivojlantirish, talab va taklif asosida o‘z bilim, ko‘nikma, kasbiy malakalarini, raqobatbardoshliklarini oshirish, o‘zgarishlarga moslashish, o‘zini o‘zi band qilish va tadbirkorlikka jalb qilish hamda o‘z salohiyat va qobiliyatlarini namoyon qilish va ulardan to‘la foydalanishga barcha imkoniyatlarni yaratishni o‘z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. R.A.Qodirova., O.E.Axunova., N.X.Olimova. “Aholi bandligini ta’minlash modellari va undan O‘zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlari” “Scientific Progres” jurnali. // ISSN:2181-1601. Volume 3, Issue 2, 2022.
2. M.K.Abdullayev., D.B.Begalova. “O‘zbekiston Respublikasida aholi bandligini ta’minlashdagi dolzarb masalalar” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2021 yil.

3. <https://review.uz/>

4. <https://yuz.uz/>

5. <https://kun.uz/>